

INTEGRATIV - KREATIV YONDASHUV ASOSIDA LINVESTIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH

Yakubova Guzal Luxmanovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim nazariyasi
kafedrası

o'qituvchisi

guzal.yakubova.2701@gmail.com

Telefon: +998918129777

Annotatsiya: Ushbu maqolada linvestik tafakkurni rivojlantirishda integrativ - kreativ yondashuvning ahamiyati xususida fikr yuritildi

Аннотация: В данной статье обсуждается значение интегративно-творческого подхода в развитии в развитии исследовательского мышления

Abstract: In this article, the importance of an integrative-creative approach in the development of research thinking was discussed.

Kalit so'zlar: g'oya , kontekst , yangilik , tahlil va sintez , kreativlik , integratsiya, ilm-fan , tafakkur .

KIRISH

Zamon shiddat bila rivojlanayotgan bir paytda yoshlarimizning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish va shakllantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir .Insoniyat tafakkuri qachalik yuksalsa, jamiyatda ro'y beradigan turli global muammolarga kreativ yondashgan holda , yechim izlash jarayoni osonlik bilan kechadi .Tafakkur va fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, insoniyat tug'ilgan paytidanoq

singdirib boriladi .Kreativ va yangi g'oyalarni shakllanishida fikrlar xilma-xilligi va teranligi katta ahamiyat kasb etadi .Yoshlarimizni aqliy salohiyatlarini yuksaltirishda pedagoglarning ta'lim jarayonida amalga oshiradigan faoliyatlari ham muhimdir. Qachonki , insoniyat ongi yuksalsa , jamiyat rivojlanishi va taraqqiy etish jarayoni ancha tezlashadi .Chunki jamiyat a'zolarida kreativ fikrlash va yangiliklarni kashf etolish qobiliyati shakllansa , ana o'sha jamiyatda barcha sohalarda o'sish va rivojlanish yuz beradi .Yangi texnika va texnologiyalar kashf etilib , jamiyat yuksalishi va rivojlanishida katta turtki vazifasini bajaradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

Tadqiqot jarayonida mavzuga oid ko'plab ilmiy -uslubiy qo'llanmalar va adabiyotlardan foydalanildi .

MUHOKAMA

Kreativ so'zi asosan ijodiy yoki yaratish qobiliyatiga ega degan ma'nolarni anglatadi .Ushbu so'z yangi g'oyalar , yangi fikrlar vositasida ma'lum bir muammoga noan'anaviy yechim izlash jarayoni tushuniladi .Kreativlik so'zi bugungi kunda san'at , dizayn , ilm-fan va kundalik hayotda qo'llanilmoqda .

Integrativ -kreativ yondashuv asosida linvestik tafakkurni rivojlantirish va takomillashtirish deganda ilmiy va ijodiy fikrlash jarayonlarini birlashtirish va o'zaro bog'liqlik asosida muammolarga yangi yechimlarni izlashni o'z ichiga oladi .Ushbu jarayonni amalga oshirishdan oldin esa , tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish zarur.Inson erkin va tanqidiy fikrlashni o'rganganidan so'ng esa , unda kreativ fikrlash qobiliyati shakllanadi.Bunday yondashuv tafakkurda innovatsiya va yangi nuqtai nazarlarni rivojlantirishga yordam beradi .Kreativ fikrlash uchun esa , har bir kishida mustahkam bilim ham talab etiladi .Integrativ-kreativ tafakkurni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari :

1.Ko'p tomonlama fikrlash - turlicha nuqtai nazarlardan foydalangan holda , yangi imkoniyatlar yaratish

2.Ochiq fikrli yondashuv -ushbu yondashuvda yangi g'oyalarni kengaytirish, yangi g'oyalarni kashf etish va boshqalar tushuniladi .

3.Innovatsion jarayonlarni qo'llash-yangi texnologiyalarni qo'llashda tizimli yondashuvlarni rivojlantirish

4.G'oyalarni sinash va tajriba qilish -turli strategiyalarni amalda sinash , xatolarni o'rganish va ular ustida ishlash .

Linvestik tafakkurni takomillashtirishda ko'plab jarayonlarni amalga oshirish mumkin .

a) O'zaro aloqalarni mustahkamlash

b) Muammolarni hal qilish

c) Boshqa ko'plab sohalarda amalga oshirilgan tadqiqotlarni rag'batlantirish

Tafakkurning xotira va qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish deganda g'oyalarni to'plash va ularni sinchiklab tahlil qilish orqali tasavvurlarni kengaytirish. Innovatsion o'qitish metodikalaridan foydalanish orqali tizimli tarzda yangiliklarni va innovatsiyalarni o'rgatish va amaliyotga tatbiq etish mumkin .

XULOSA

Umumiy qilib aytganda linvestik tafakkurni rivojlantirish va shakllantirishda kreativ va integrativ yondashuv muhim hisoblanadi . Tafakkurni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda ushbu jarayonni amalga oshirsak kreativ tafakkur rivojlanishiga zamin yaratiladi . Turli fikrlarni uyg'unlashtirish orqali innovatsion va kreativ fikrlarni shakllanishi jarayoni ancha tezlashadi . Tafakkurni rivojlantirish orqali yangi g'oya va fikrlarni taraqqiy ettirish mumkin. Yosh avlodni kreativ fikrlashga o'rgatish va ularning aqliy intellektual salohiyatlarini oshirish jarayoniga nihoyatda sinchikovlik bilan e'tibor berib , ushbu jarayonni tizimli ravishda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir .Zero yoshlari har tomonlama zukko, bilimli va

tarbiyali jamiyatning ertangi kelajagi ham buyukdir . Yoshlarning ta'lim-tarbiya olishida , intellektual qobiliyatlarini shakllantirishda butun jamiyat a'zolarining ahamiyati va o'rni katta hisoblanadi .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Ne'matov, Oybek. "TA'LIMDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI." " *Science Shine*" *International scientific journal* 3.3 (2023).
2. Boyqobilova, Nilufar. "SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNI BOSHQARUV JARAYONIGA TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH (BOSHLANG 'ICH TA'LIM)." *GOLDEN BRAIN* 1.33 (2023): 85-88.
3. Rayimova, Dilfuza Abdinabiyevna. "XX ASR O 'ZBEK TILSHUNOSLIGI: MORFEMIKAGA OID QARASHLAR." *RESEARCH AND EDUCATION* 2.10 (2023): 276-280.
4. Ochilova Fayyoza Mansurovna. "Hazrat Navoiyning ona tilimizning bugungi kamolotiga qo'shgan katta hissasi haqida" (BOSHLANG 'ICH TA'LIM)." *GOLDEN BRAIN* 1.33 (2023): 37-41.
5. Yakubova Guzal Lukhmanovna. *WORLD SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL* "LINESTICS THINKINC BASED ON AN INTEGRATIVE-CRAATIVE APPROACH".
6. Kamalova, Dilobar Tairovna. "PEDAGOGIK TA'LIM JARAYONIDA TALABALARNING KONGUENTLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI." *RESEARCH AND EDUCATION* 2.10 (2023): 272-275.
7. Umarova, Dilafruz Anvarovna. "BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIK TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNI IJTIMOIIY-HISSIY RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH." *GOLDEN BRAIN* 1.30 (2023): 46-49.

8. Erkin o'g'li, Nematov Oybek. "PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALAR." MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS 1.3 (2024): 147-150.
9. Anvarovna, Umarova Dilafruz. "BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IJTIMOIIY USTANOVKALARNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI." TADQIQOTLAR 31.4 (2024): 3-6.
10. Raimova, Dilfuza Abdinabiyevna. "TIL-ALOQA VOSITASI." Educational Research in Universal Sciences 2.16 (2023): 128-130.
11. Amirova, Gulnoza. "The benefits of using modern technologies for learning foreign languages." Proceedings of The ICECRS 4 (2019).
12. Ochilova, Fayyoza. "TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI." YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI 1.01 (2024).
13. Boyqobilova, Nilufar Uzaqovna. "THE THEORY OF THE SELF-ORGANIZATION OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS'EDUCATIONAL ACTIVITIES IS BASED ON A SYNERGISTIC APPROACH." Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal 5.03 (2024): 101-110.
14. Kamalova, D. "IMPROVING THE METHODOLOGY OF DEVELOPING CONGRUENCE QUALITIES IN THE PROCESS OF PEDAGOGICAL EDUCATION OF STUDENTS." Science and innovation 3.B2 (2024): 105-108.
15. Olimov, Shirinboy Sharofovich, and Khusniddin Kupayinovich Khomidov. "Preparing Future Teachers To Solve The Tasks Of Patriotic Education Of Children And Youth." The American Journal of Social Science and Education Innovations 2.12 (2020): 132-136.
16. Болтаева, Зулфия Зарифовна, and Хусниддин Купайсинович Хомидов. "ЛИЧНОСТНО-ДЕЯТЕЛЬНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В НЕПРЕРЫВНОМ ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ." VIII Лазаревские чтения "Лики традиционной культуры в современном культурном пространстве: ренессанс базовых ценностей?". 2018.

17. Khomidov, Khusniddin Kupaysinovich. "COOPERATION BETWEEN STATE AND PUBLIC ORGANIZATIONS IN THE MEANINGFUL ORGANIZATION OF YOUTH LEISURE ACTIVITIES." *Thematics Journal of Social Sciences* 7.3 (2021).
18. Kupaysinovich, Khomidov Khusniddin. "INTERPRETATION OF STUDENTS'PATRIOTIC ISSUES IN ORIENTAL PEDAGOGY." *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol 7.12 (2019).
19. Купайсинович, Хомидов Хусниддин. "ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ СИФАТИНИ ТАЪМИНЛАШДА ЖАМОАТ ТАШКИЛОТЛАРНИНГ РОЛИ." *НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ*-2021 1: 561.
20. Homidov, H. K. "TALABALARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA JAMOAT TASHKILOTLARI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI." *Экономика и социум* 5-1 (108) (2023): 83-87.